

**Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti**  
**Talaba klublari bo‘limi boshlig‘i Ch.Xushmurodova tomonidan 2023/2024-o‘quv yili**  
**davomida bajargan ishlari to‘g‘risida**  
**MA’LUMOT**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-noyabrdagi PQ-416-son qarori va shu qarorning 2-ilovasi Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetini transformatsiya qilish va kompleks rivojlantirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ning 11-bandi ijrosini ta‘minlash maqsadida universitet rektorining 2022-yil 26-dekabrdagi “Talabalar klublari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 378-u-sonli buyrug‘i e‘lon qilindi.

Buyruqqa muvofiq talabalar bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, talabalar va professor-o‘qituvchilar takliflari asosida talaba to‘garaklarini tashkil etish bo‘yicha universitetda so‘rovnoma o‘tkazildi hamda shu asosida talaba va professor-o‘qituvchilarning xohish va istaklaridan kelib chiqqan holda tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha bugungi kunda 31 ta talaba klublari tashkil etildi.

Talabalar dekanati tarkibidagi “Talaba klublari” bo‘limi 2023/2024-o‘quv yilidan O‘Z ISH FAOLIYATINI BOSHLADI.

**2023-yil 8-sentabr kuni** “Orientation week” talabalar haftaligi doirasida tashkil etilgan “Talaba klublari” bilan tanishtiruv taqdimotida universitetning Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor Sherzod Uzoqov ma‘lum qildi.

Tashkil etigan 31 ta klublar shartli ravishda 5 muhim tashabbus va mutaxassislik yo‘nalishlariga ajratilgan bo‘lib, 5 muhim tashabbus klublari umumiy kordinatori etib Ikrom Davurov, mutaxassislik yo‘nalishidagi klublar umumiy kordinatori etib Jahongir Otamurodov tayinlangan.

Hozirda mutaxassislik yo‘nalishidagi klublar qoshida 10 ta pullik o‘quv kurslar ham faoliyat olib bormoqda.

**2023-yil 8-sentabr kuni** Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti kichik faollar zalida “Orientation week” tanishuv haftaligi doirasida “Talaba klublari” yo‘nalishlaridan “Mnemonika” va “IT club” klublari taqdimoti bo‘lib o‘tdi.

Taqdimotda Talabalar dekani Bekzod Saidov va Iqtisodiyot va boshqaruv fakulteti talabalari va tyutorlari tashrif buyurdilar. Avvalo klub rahbari Sevinch Omonova tomonidan “Mnemonika” klubi taqdimoti bo‘lib o‘tib, qiziqarli xotira mashqlari va ma‘lumotlar bilan talabalarning savollariga to‘laqonli javoblar berildi.

Shundan so‘ng “IT club” taqdimoti bo‘lib o‘tdi. Taqdimot so‘ngida barcha talabalar qiziqishlari inobatga olingan holda klublarning keyingi faoliyati va rejalari kelishib olindi.

**2023-yil 8-sentabr kuni** Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida birinchi bosqich talabalari uchun “Orientation weeki” tanishtiruv haftaligi doirasida SamDAQU “Zakovat” intellektual klubining 2023/2024-o‘quv yilida ilk tanishtiruv o‘yini o‘tkazildi.

Tanishtiruv o‘yinini SamDAQU Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlari bo‘yicha birinchi prorektor Sherzod Uzoqov va SamDAQU “Talaba klublari” bo‘limi boshlig‘i Charos Xushmurodova kirish so‘zlari bilan ochib berdilar.

So‘ng “Zakovat” universitet terma jamoasi sardori Temurjon Ibodullayev talabalarga klub haqida dastlabki tushunchalarni berib o‘tdi. Jumladan, o‘yinlar bo‘lib o‘tadigan joy, shart-sharoitlari, mukofot jamg‘armasi, o‘yin qoidalari va vaqtlari haqida batafsil ma‘lumotlar berildi. Shuningdek universitet terma jamoasi o‘yinlari va yutuqlari xususida ham talabalarga keng ma‘lumotlar berib o‘tdi.

Tadbir soʻngida “Zakovat”ning sport versiyasida 10 ta savoldan iborat oʻyin oʻtkazilib, oʻyin davomida amaliy mashqlar orqali talabalarga klub faoliyati yanada yaqindan tanishtirildi.

**2023-yil 12-sentabr kuni** SamDAQU Zakovat klubi Kuzgi mavsum oʻyinlariga start berdi. Natijalar @samdaq\_i\_zakovat kanalida eʼlon qilib boriladi.

Oʻyinlarda muntazam ishtirok etgan va oʻzini koʻrsata olgan talabalar OTM lar oʻrtasida oʻtkazilgan intellektual oʻyinlar uchun SamDAQU terma jamoasiga saralab olinishi taʼkidlandi.

**2023-yil 19-sentabr kuni** “BUTUNJAHON TOZALIK KUNI — YURTIMIZ OZODALIGIGA HAR BIRIMIZ MAS’ULMIZ!”shiori ostida “Yosh volontyorlar” klubi aʼzolari targʻibot tadbirini tashkil etdi.

Butunjahon tozalik kuni — bu insoniyat oʻzi yashab turgan hududda tozalikni oʻrnatish gʻoyasini ifoda etadi. Gʻoya dastavval 2008-yil Estoniyada vujudga kelib, 50 000 koʻngillilar mamlakatni chiqindilardan xoli etish uchun birlashdilar. Bugungi kunga kelib mazkur kun koʻngillilarning bir kun davomida 180 dan ortiq mamlakatni bir maqsad sari birlashtiruvchi yirik ijtimoiy harakati ifodasini topgan jarayonga aylandi. Ushbu sanaga bagʻishlangan tadbirlar Oʻzbekistonda ilk bor 2019-yildan boshlab sentabr oyining uchinchi shanbasida oʻtkazilib kelinmoqda.

Shu munosabat bilan SamDAQU “Yosh volontyorlar” klubi aʼzolari, koʻngilli yoshlar bilan birgalikda universitet hududida tozalash ishlarini olib bordilar. Klub aʼzolari va yoshlar tozalikni taʼminlash har birimizning fuqarolik burchimiz deb hisoblaydi va bu kabi amallar nafaqat, yilning aynan bir kunida, balki, har kuni bajarilishi lozim boʻlgan ish ekanligini yana bir bor eslatib qoʻyishni joiz deb topdi. Shundagina biz yashayotgan sayyorada tozalik, ozodalik, pokizalik hukm suradi.

**2023-yil 19-oktabr kuni** Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 9-avgustdagi “Talaba va yoshlarning boʻsh vaqtini mazmunli oʻtkazish tadbirlarini tashkil etish toʻgʻrisida”gi 351-son buyrugʻida asosida hamda Mirzo Ulugʻbek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti Talabalar dekanati tyutorlari tomonidan ishlab chiqilgan tadbirlar rejasi asosida Talabalar dekanati tyutori Farangiz Mamadaliyeva tashabbusi hamda SamDAQU Yoshlar ittifoqi hamrohligida 18-oktabr Samarqand kuniga bagʻishlangan Qurilish fakultetining 1-2-bosqich talaba qizlari oʻrtasida “**Samarqand goʻzali**” deb nomlangan koʻrik-tanlov oʻtkazildi.

Ushbu koʻrik-tanlovda talaba qizlar 4 ta shart jumladan, tanishtiruv, milliy liboslar koʻrgazmasi, pazandalik va anonim (oʻsha mavzuga taʼrif berish) mavzudagi shartlar asosida bellashdilar.

Tanlov Yoshlar masalalari boʻyicha prorektor Sherzod Uzoqov, Klublar faoliyati boshligʻi Charos Xushmurodova va Qurilish fakulteti Yoshlar masalalari boʻyicha dekan oʻrinbosari Ahmad Kamolovlar hakamligi ostida oʻtdi. Tanlovda qizlar oʻzlarining serqirra ijodlarini namoyon etdilar.

Yakuniy natijalarga koʻra faxrli 1-oʻrinni Pirimboyeva Marjona, 2-oʻrinni Hayitboyeva Dilafruz va 3-oʻrinni Quvondiqova Umidalar egalladilar. Tanlov gʻoliblari diplom va esdalik sovgʻalar bilan taqdirlandilar.

2022-yilning 8-noyabrida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Arxitektura-qurilish sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-416-sonli qaroriga asosan institutimizga universitet maqomi berildi.

Shu munosabat bilan **2023-yil 4-noyabr kuni** Mirzo Ulugʻbek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida tashkil etilgan Talaba klublari faoliyati boʻyicha taqdimotlar namoyish etildi.

Taqdimotning dastlabki kunida “Munozara”, “Yosh volontyorlar” va “Zakovat” klublari faoliyati namoyish etildi. Universitet kichik faollar zalida ilk tadbir “**Munozara**” klubining taqdimoti bilan boshlandi.

Tadbirni talabalar dekanati dekani Bekzod Saidov ochib berdi va taqdimot ishiga omad tiladi. Shundan soʻng, klubning faxriy mehmoni “Ijtimoiy va tabiiy fanlar” kafedrasida oʻqituvchisi Adolat Ziyotova soʻzga chiqib, klub faoliyati haqida qisqacha maʼlumot berib oʻtdi.

Taqdimotda soʻzga chiqqan “Talaba klublari” boʻlimi boshligʻi Charos Xushmurodova universitetning 1 yilligi munosabati bilan oʻtkazilayotgan taqdimot koʻrgazmasida klublar faoliyati, maqsad va vazifalari haqida batafsil maʼlumotlar berib, klublarda talabalarni faol ishtirok etishga chorladi.

Munozara klubi koordinatori Aziz Mahmudov tomonidan klub faoliyati haqida maʼlumotlar berib oʻtildi. Talaba-yoshlar bilan oʻtgan qizgʻin savol-javoblardan soʻng, klub aʼzolari ishtirokida “tasdiq-inkor” pozitsiyasida jonli oʻyin ham tashkil etildi.

**2023-yil 4-noyabrda** Mirzo Ulugʻbek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida tashkil etilgan Talaba klublari faoliyati boʻyicha taqdimotlar namoyish etildi.

Universitetning 5 tashabbus markazi faollar zalida **“Zakovat”** intellektual klubi faoliyati boʻyicha taqdimot oʻtkazildi. Klub koordinatori Temurjon Ibodullayev boshchiligida terma jamoa faoliyati va erishgan yutuqlari xususida maʼlumotlar berildi. Taqdimot soʻngida SamDAQU akademik litsey oʻquvchilari oʻrtasida intellektual oʻyin tashkil etildi. Klubga aʼzo boʻlish istagini bildirgan oʻquvchilar haftaning har seshanba kuni boʻlib oʻtadigan turnirlarda jamoaviy ishtirok etishga kelishib oldilar.

Taqdimotda mehmonlardan akademik litsey maʼnaviy-maʼrifiy ishlar boʻyicha direktor oʻrinbosari Muqaddas Abduhakimova, yoshlar yetakchisi Ozoda Norboyeva, ona tili va adabiyot fani oʻqituvchisi Zulayho Fayziyeva, matematika fani oʻqituvchisi Joʻrabek Murodovlar tashrif buyurdilar.

**2023-yil 4-noyabrda** Mirzo Ulugʻbek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida tashkil etilgan Talaba klublari faoliyati boʻyicha taqdimotlar namoyish etildi.

Koʻrgazmaning eng qizgʻin taqdimoti bu **“Yosh volontyorlar”** klubi aʼzolari hamda Talaba klublari boʻlimi bilan hamkorlikda tashkil etildi.

Taqdimotga universitet rektori Chidem Turkyilmaz va yoshlar masalalari va maʼnaviy-maʼrifiy ishlar boʻyicha prorektor Sherzod Uzoqov, universitet bosh kotib Ulugʻbek Xolmatov, Yoshlar yetakchisi Ikrom Davurovlar tashrif buyurib, klub faoliyati bilan yaqindan tanishdilar.

Universitet rektori, universitet prorektori va universitet yoshlar yetakchisi hamda bir guruh volontyor yoshlar birgalikda klub rasmiy doskasiga aʼzolik belgisining yorqin namoyishi sifatida qoʻllari bilan ramziy muhr qoldirdilar. Klub faoliyati uzoq yillar davom etib, mehr va muruvvat ila yordam qoʻllarini choʻzishdan toʻxtamasligiga tilakdosh boʻldilar.

“Universitet haftaligi” dasturi doirasida **2023-yil 6-noyabr kuni “Talaba klublari”** koʻrgazmasining **2-qismiga** start berildi. Koʻrgazmaning ilk namoyishi universitet 5 tashabbus markazi faollar zalida **“Mnemonika” va “IT”** klublari taqdimoti bilan boshlandi.

Taqdimotni yoshlar masalalari va maʼnaviy-maʼrifiy ishlar boʻyicha prorektor Sh.Uzokov kirish soʻzi bilan ochib berdi hamda talaba klublari uchun yaratilgan imkoniyatlar haqida qisqacha toʻxtalib oʻtdi. Tadbirda soʻzga chiqqan talabalar dekanati dekani B.Saidov ishtirokchi talabalarga ikkala klubning ham ahamiyati haqida batafsil toʻxtalib, nafaqat oʻqish davrida balki, undan keyingi faoliyatida ham muhim oʻrin tutishini tushuntirib oʻtdi.

Shundan soʻng, “Talaba klublari” boʻlimi boshligʻi Ch.Xushmurodova soʻzga chiqib, tashkil etilgan klublar va unlarining maqsad va vazifalari haqida qisqacha gapirib oʻtdi.

Taqdimot mehmonlari “Ijtimoiy va tabiiy fanlar” kafedrasida mudiri A.Quldoshev hamda katta oʻqituvchi A.Ziyotovalar ham talabalar uchun yaratilgan bunday imkoniyatlar nafaqat yoshlarni, balki, professor-oʻqituvchilarni ham birdek xursand qilishini taʼkidlab oʻtdilar.

Taqdimotning asosiy qismida **“Mnemonika” va “IT”** klublari koordinatori S.Omonova tomonidan klublar faoliyati va ushbu faoliyat doirasidagi kurslar haqida maʼlumot berildi.

Shu bilan birgalikda talabalarning vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida xotira mashqlari bilan shug'ullanildi, taqdimotga ajratilgan vaqt qiziqarli va mazmunli o'tdi.

**2023-yil 6-noyabr kuni** "Talaba klublari" ko'rgazmasining "**Mohir qo'llar**" klubi taqdimoti ham tashkil etildi.

Taqdimotda klub a'zolari tomonidan yaratilgan turli xil buyumlar (tillaqosh, turli xil ayollar taqinchoqlari, qizaloqlar uchun to'qilgan qo'g'irchoqlar, kashta, quroq, sun'iy gullar, atlas va adras choponlar, so'zana, iroqi do'ppi) tashrif buyurgan mehmonlar ixtiyoriga havola etildi.

Taqdimotda universitet rektori Ch.J.Turkyilmaz, yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor Sh.Uzokov va talabalar dekanati dekani B.Saidovlar tomonidan klub a'zolariga keyingi faoliyati bo'yicha ko'rsatmalar berildi va doimiy ishlash joyi bo'yicha aniq to'xtamga kelishib olindi.

**"Yosh Volontyorlar"** klubi taqdimoti 2-qismiga tashrif buyurgan mehmonlarga klub tashkil etilgandan keyingi qilingan ishlar aks ettirilgan rasmlar namoyish etildi. Taqdimot davomida klub faoliyati haqida ma'lumotlar aytili, klubning maqsad va vazifalari bilan tanishtirildi. Tashrif buyurgan mehmonlardan klub logotipining ramzi bo'lgan rangli qo'l izlari olindi. Mehmonlar klub faoliyati uchun o'z tilaklarini esdalik qog'ozlariga yozib ketishdilar!

**2023-yil 6-noyabr kuni** "Talaba klublari" ko'rgazmasining "**Yosh kitobxon**" klubi taqdimoti tashkil etildi.

Taqdimotda klub koordinatori D.Shaydullayeva tomonidan klubning maqsadlari, foydali taraflari haqida ma'lumotlar berildi. Klubning asosiy maqsadi talaba yoshlarni ko'p kitob o'qishga, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga, bilim va ko'nikmalarini yanada oshirishga qaratilgani haqida aytib o'tildi. Ko'rgazmaga tashrif buyurgan mehmonlar klub faoliyatiga doir o'z fikr va tilaklarini aytib o'tdilar.

Bundan tashqari, fakultetlararo tashkil etilgan "Yosh kitobxon" tanlovi bo'yicha berilgan badiiy asarlar namoyishi ham bo'lib o'tdi.

**2023-yil 6-noyabr kuni** o'tkazilgan ko'rgazmada "**Ulug'bek vorislari**" teatr klubi a'zolarining tarixiy shaxslar siyosidagi o'ziga xos chiqishlari barchaga birdek manzur bo'ldi. Chiqishlar davomida tomoshabinlarga Alisher Navoiy haqida qisqacha sahna ko'rinishlari, xususan, "**Navoiy va Guli**" monologi, Navoiyning ustoz bilan ilk uchrashuvi, "**Husayn Boyqaro saroyida**" kabi ko'rinishlar taqdim etilgan bo'lsa, Zahiriddin Muhammad Bobur hayotiga va ijodiy faoliyatiga oid "**Vatan sog'inchi**" nomli sahna ko'rinishi namoyish etildi.

Sahna ko'rinishlari barcha kuzatuvchilarda iliq taassurot qoldirdi. Ko'rgazma mehmonlari namoyishdan so'ng klub a'zolari bilan esdalik rasmga tushdilar.

"Universitet haftaligi" dasturi doirasida **2023-yil 6-noyabr kuni** Talaba klublari ko'rgazmasining ikkinchi qismi bo'lib o'tdi. Ushbu ko'rgazmada "**Yosh rassomlar**" klubi o'z taqdimoti bilan qatnashdi.

Taqdimotga universitet rektori Chidem Turkyilmaz hamda yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor Sh.Uzokov tashrif buyurib, talaba klublari faoliyatiga zafarlar tilar ekan, rassomchilik tarixi haqida qisqacha to'xtalib o'tdilar.

Shundan so'ng, Talab klublari bo'limi boshlig'i Charos Xushmurodova klub faoliyati haqida qisqacha to'xtalib, klub qoshida talaba-yoshlar va o'quvchi-yoshlar uchun tashkil etilgan o'quv kurs haqida ma'lumot berib o'tdi.

"Yosh rassomlar" klubi koordinatori Farida Islomova va klub mutaxassislari hamda a'zolarining o'quv kurs faoliyati davomida ishlangan ijodiy ishlari ko'rgazmasi namoyish qilindi.

Ko'rgazmaga tashrif buyurganlar klub faoliyati bilan yaqindan tanishdilar va ko'rgazmadagi mutaxassislar ijodiy ishlarini mutaxassis sifatida a'lo darajada baholashlarini aytib o'tib, kelgusidagi ijodlarida va faoliyatlarida muvaffaqiyat tiladilar.

**2023-yil 6-noyabr kuni** Talaba klublari ko'rgazmasining ikkinchi qismi bo'lib o'tdi. Ushbu ko'rgazmada "**Maketlash va modellash**" klubi o'z taqdimoti bilan qatnashdi.

Taqdimotga universitet rektori Chidem Turkyilmaz hamda yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor Sh.Uzokov tashrif buyurib, klub a'zolari tomonidan jamoa bo'lib ishlangan maketlarni ko'zdan kechirdilar.

Shundan so'ng, Talaba klublari bo'limi boshlig'i Charos Xushmurodova klub koordinatori Farida Islomova bilan birgalikda klub faoliyati va a'zolari haqida qisqacha to'xtalib o'tdi.

Taqdimot davomida ushbu yo'nalishga qiziqqan talaba-yoshlar klubga a'zo sifatida ro'yxatdan o'tishdi va o'quv kurslariga yozilishdi. Taqdimot a'lo va ko'tarinki kayfiyatda bo'lib o'tdi!

**“Yosh arxitektorlar”, “Yosh quruvchi muhandislar” va “Yosh menejmentlar”** kabi mutaxassislik klublari umumiy koordinatori J.Otamurodov tomonidan ko'rgazmaga tashrif buyurganlarga klublar va ular qoshida tashkil etilgan o'quv kurslar haqida batafsil tushunchalar berildi.

“Universitet haftaligi” dasturi doirasida tashkil etilgan Talaba klublari ko'rgazmasida **“Xorijiy tillar va tarjima”** klubi o'z taqdimoti bilan ishtirok etdi.

Taqdimotga tashrif buyurgan universitet rektori Chidem Turkyilmaz va yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor Sh.Uzokov klub faoliyati bilan yaqindan tanishdilar va klub faoliyatini qo'llab-quvvatlashlarini aytib, kelgusi faoliyatiga zafarlar tiladilar. Talabalar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar haqida qisqacha to'xtalib o'tdilar.

Shundan so'ng, “Talaba klublari” bo'limi boshlig'i Charos Xushmurodova klub faoliyati haqida qisqacha to'xtalib o'tib, klub qoshida talaba-yoshlar va professor-o'qituvchilar uchun ingliz tili, turk tili va rus tili bo'yicha tashkil etilgan o'quv kurslar haqida ma'lumot berib o'tdi.

**“Xorijiy tillar va tarjima”** klubi koordinatori Farida Islomova va klub mutaxassislari tomonidan klubdagi faoliyati davomida erishgan yutuqlari, klub qoshida faoliyat olib borayotgan o'quv kurslari ish dasturi, dastur doirasida foydalaniladigan kitoblar va qo'llanmalari ko'rgazma qatnashuvchilariga namoyish etildi.

Universitet katta faollar zalida **“To'maris”** qizlar raqs klubi, **“Ulug'bek yulduzlari”** vokal ansambli, **“QVZ”** klubi namoyishi bo'lib o'tdi.

Tadbirni yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor Sh.Uzokov kirish so'zi bilan ochib berdi va taqdimot ishiga omad tiladi. So'ng, talabalar dekanati dekani B.Saidov ham so'zga chiqib, sahnada va sahna ortida mehnat qilayotgan barchaga o'z minnatdorchiligini bildirdi. Shundan so'ng so'z navbati Talaba klublari bo'limi boshlig'i Charos Xushmurodovaga berildi. Ch.Xushmurodova yangilik sifatida keyingi o'rinlarda yigitlar uchun **“Danc club”** faoliyati ham yo'lga qo'yilishini aytib o'tdi va ishtirokchilarga omad tiladi.

Dastlab qizlar raqs klubi o'z chiqishlari barchani xushnud qildi. **“Ulug'bek yulduzlari”** vokal ansambli a'zolari tomonidan aytilgan kuy-qo'shiqlar barchaga ko'tarinki kayfiyat ulashdi.

**“QVZ”** klubi namoyishlarini 5 tashabbus yo'nalishidagi klublar umumiy koordinatori, yoshlar ittifoqi universitet BT yetakchisi I.Davurov olib bordi. Deyarli 1 soat davom etgan yumoristik chiqishlar yig'ilganlarga yig'ilganlarga xushkayfiyat ulashdi.

Taqdimotga universitet rektori Chidem Janbay Turkyilmaz tashrif buyurib, bu klublar nafaqat talaba-yoshlar, balki, professor-o'qituvchilar uchun ham birdek qiziqish uyg'otishini aytib o'tdi.

2023-yilning **28-noyabr kuni** universitet 5 tashabbus markazi faollar zalida 2023-yil Kuzgi mavsum SamDAQU **“ZAKOVAT”** klubida o'tkazilgan turnir o'z nihoyasiga yetdi. Yakuniy o'yinni yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor Sherzod Uzoqov kirish so'zi bilan ochib berdi. Shundan so'ng talabalar dekani Bekzod Saidov turnir final o'yinida ishtirok etayotgan jamoalar va ishtirokchilarga omad tilab, ushbu turnir tashkilotchilariga

minnatdorchilik bildirdi. Tadbirda soʻzga chiqqan Talaba klublari boʻlimi boshligʻi Charos Xushmurodova gʻolib jamoalar mukofot jamgʻarmasi va taqdirlash jarayoni haqida maʼlumot berib oʻtdi.

12 ta jamoalar oʻrtasida boʻlib oʻtgan jami 9 ta tur natijalariga koʻra:

81,5 ball bilan **"DIAMOND"** jamoasi 1-oʻrinni;

80,5 ball bilan **"DAHOLAR BATALYONI"** jamoasi 2-oʻrinni;

80 ball bilan **"ALLIANCE"** jamoasi 3-oʻrinni qoʻlga kiritdilar.

Gʻolib jamoalar "Yil yakuni" tadbirida taqdirlanadilar.

2023-yil **Kuzgi mavsum** SamDAQU "ZAKOVAT" klubida oʻtkazilgan **"ERUDITLAR LIGASI"**ning yakuniy natijalari boʻyicha:

1-oʻrin sohibi Asilbek Qilichov;

2-oʻrin sohibi Sirojiddin Muxtorov;

3-oʻrin Muazzam Boymurodovaga nasib etdi.

2023-yil Kuzgi mavsum SamDAQU "ZAKOVAT" klubida oʻtkazilgan **"SHAXSIY OʻYIN"** ligasining yakuniy natijalari boʻyicha:

1-oʻrin sohibi Navruz Ibragimov;

2-oʻrin sohibi Asror Toshpoʻlatov;

3-oʻrin Ismoil Gʻaniyevga nasib etdi.

**2023-yil 30-noyabr kuni** "Family park" savdo markazida, Quvnoqlar va zukkolar koʻrik tanlovi boʻlib oʻtdi. Unda universitetning **"Maroqandlik bojalar" qvz terma jamoasi** ishtirok etib, eng yuqori ballarni qoʻlga kiritib, universitetimiz shaʼnini munosib himoya qilishdi.

Yakunda, jamoamiz birinchi oʻringa atalgan **NOUTBOOK** hamda, eng katta sovgʻa **"Umra" safariga yoʻllanmani** qoʻlga kiritishdi.

**2023-yil 5-dekabr kuni** soat 16:00 da 5 tashabbus zalida Talabalar dekanati hamda "Zakovat" klubi hamkorligida Oʻzbekiston Respublikasi konstitutsiyasi qabul qilinganligining 31 yilligi munosabati bilan Mirzo Ulugʻbek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida "Zakovat" intellektual oʻyini oʻtkazildi.

**2023-yil 25-dekabr kuni** "Zakovat intellektual klubi" NNT Samarqand zakovat klubi jamoalari orasida oʻtkazilgan Breyn-ring turniri gʻoliblari aniqlandi.

Ushbu oʻyinda Mirzo Ulugʻbek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetining **"Bunyodkor" terma jamoasi** munosib ishtirok etib **faxrli 2-oʻrin** va bir martalik pul mukofotini qoʻlga kiritdi.

**2024-yil 11-yanvar kuni** Mirzo Ulugʻbek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida Xotin-qizlar qoʻmitasi tomonidan universitet professor-oʻqituvchilari va ishchi-xodimlari oʻrtasida **"Zakovat"** intellektual oʻyinining 14-yanvar —Vatan himoyachilari kuniga bagʻishlangan bayramona turi boʻlib oʻtdi.

Unda Yoshlar masalalari va maʼnaviy-maʼrifiy ishlar boʻyicha prorektor Sherzod Uzoqov, Xotin-qizlar qoʻmitasi aʼzolari, professor-oʻqituvchilar va ishchi-xodimlardan tashkil topgan 10 ga yaqin jamoalar ishtirok etdilar.

Qiziqarli kechgan aql jangida natijalar quyidagicha belgilandi:

**I oʻrin – "Rektorat" jamoasi;**

II oʻrin – "Iqtisodchilar" jamoasi;

III oʻrin – "Qalqon" jamoasi qoʻlga kiritdi.

Barcha jamoalar oʻyin soʻngida tashkilotchilar tomonidan diplom va tashakkurnomalar hamda esdalik sovgʻalari bilan taqdirlandi.

**2024-yil 31-yanvar** kuni soat 15:00da Universitet katta faollar zalida "Ulugʻbek vorislari" teatr jamoasiga qabul qilish va Respublika bosqichida ishtirok etish uchun **KASTING** boʻlib oʻtdi.

Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida bugun **yangi loyihaga start berildi.**

Talaba klublari va Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” bo‘limlari hamda Yoshlar Ittifoqi boshlang‘ich tashkiloti hamkorligida **“Mutolaa zavqi”** loyihasing ilk uchrashuvi tashkil etildi.

**2024-yil 31-yanvar kuni** Loyihaning ilk tadbiri **“Abdulla Oripov” filmining taqdimoti** bilan boshlandi. Film namoyishidan so‘ng, talabalar bilan o‘zaro fikrlar almashinildi. Tadbirda universitet Talabalar dekanati dekani Bekzod Saidov va Talaba klublari bo‘limi boshlig‘i Charos Xushmurodova hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens nazorat” bo‘limi boshlig‘i Zikrilla Yasakovlar loyiha haqida iliq fikrlar bildirdi. Film barcha kitobxon talabalarda iliq taassurot qoldirdi.

**2024-yil 7-fevral** Talaba klublari va Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” bo‘limlari hamda Yoshlar Ittifoqi boshlang‘ich tashkiloti bilan hamkorlikda **“Mutolaa zavqi” loyihasing ikkinchi haftasiga start berildi.**

Yosh kitobxonlar kanalida ([https://t.me/yosh\\_kitobxon\\_samdaqu](https://t.me/yosh_kitobxon_samdaqu)) o‘tkazilgan so‘rovnoma asosan O‘tkir Hoshimovning **“Dunyoning ishlari” asari** 74% ovoz bilan loyihaning ikkinchi haftasida o‘rganildi.

Tadbirda yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektor Sherzod Uzoqov, Talaba klublari bo‘limi boshlig‘i Charos Xushmurodova, Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” bo‘limi boshlig‘i Zikrilla Yasakov, bo‘lim mutaxassisi Musavvara Ibragimova hamda “Yosh kitobxon” klubi a‘zolari ishtirok etdilar.

Muhokamada dastlab adib hayoti va ijodi haqida qisqacha ma‘lumotlar berildi. Shundan so‘ng kitobda katta-yu kichik novellalardan iborat qissa ekanligi, biroq ularning barchasida eng aziz odam — ona siymosi borligi, qissani o‘qib turib, asar odamlarni insofga, insonni qadrlashga, ona siymosini ulug‘lashga va hurmat qilishga chaqirishi aytib o‘tildi.

2024-yil **fevral oyidan boshlab** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-noyabrda PQ-416-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida universitetda tashkil etilgan “Yosh volontyorlar” klubining **1 yilligi munosabati bilan** viloyat Yoshlar Markazi binosida Samarqand volontyorlar maktabining 6-mavsumida klub a‘zolarini o‘qishi tashkil etildi.

Shu munosabat bilan, klub a‘zolarini **2024-yil 8-fevraldan 5-martga qadar** haftaning har seshanba va payshanba kunlari soat 13:00 dan 16:30 ga qadar darslarga Talaba klublari bo‘limi boshlig‘i **mas‘ulligida** ishtiroki ta‘minlanmoqda va universitet kichik faollar zalida **“Volontyorlar maktabi”** loyiha ishlarini tashkil etishmoqda.

**2024-yil 14-fevral kuni** Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida Hazrat Alisher Navoiy tavalludining 583 yilligi hamda shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 541 yilligiga bag‘ishlangan **“Navoiy Hirotda, Qobulda Bobur”** nomli adabiy kecha bo‘lib o‘tdi.

Tadbirni Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektor Sherzod Uzoqov ochib berdi.

Adabiy kechada “Ulug‘bek vorislari” teatr jamoasi a‘zolari tomonidan **“Navoiy va Husayn Boyqaro”, “Oshiq Hofiz va Layli”, “Bobur va Humoyun”** kabi sahna ko‘rinishlari va g‘azalxonliklar bayram tadbiriga o‘zgacha shukuh bag‘ishladi.

Tadbir so‘nggida “O‘zbek tili va adaboyoti” kafedra mudirasi Istoda Rasulova so‘zga chiqib, bu ikki buyuk shaxsning ijodi haqida talabalarga ma‘lumot berdi. Bayram tadbirini tashkillashtirishda jonbozlik ko‘rsatgan Gulchexra Xalikova va talabalarga universitet nomidan minnatdorlik bildirdi.

**2024-yil 14-fevral kuni** “Mutolaa zavqi” loyihasing **3-sonida O‘tkir Hoshimovning “Nur borki, soya bor” asari** muhokamasi tashkil etildi.

Muhokamada Talaba klublari bo‘limi boshlig‘i Charos Xushmurodova, Korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazorat bo‘limi boshlig‘i Zikrilla Yasakov, bo‘lim xodimasi Musavvara Ibragimova hamda loyihaning mehmoni universitet xotin-qizlar kengashi raisi Adolat Ziyotovalar ham faol ishtirok etib, asar bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirib o‘tdilar.

Jarayonda talabalar ham o‘zlarining takliflari va tanqidiy qarashlari bo‘yicha fikr almashdilar va loyihaning keyingi soniga Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasi bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rishga kelishib oldilar.

**2024-yil 15-fevral kuni** Samarqand viloyat Yoshlar markazi faollar zalida O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi Samarqand viloyati Kengashi, “Ali education” o‘quv markazi va “Imron Yog‘du Art” MCHJ bilan hamkorlikda **“Quvnoqlar va Zukkolar” tanlovi** doirasida Samarqandda **“ULFATLAR” ligasining** yarim final bosqichlariga start berildi! Quvnoqlik va zukkolik bilan o‘tgan birinchi yarimfinal o‘yinlarida Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetining “Quvnoq qizlar” jamoasi “Creativ”, “Turist”, “Urgutlik shovvozlari” va “Yangi O‘zbekim” jamoalariga qarshi bellashdilar.

Yakuniy natijalarga ko‘ra birinchi yarimfinal bahsida **“Quvnoq qizlar” jamoasi 1-o‘rin** bilan, “Yangi O‘zbekim” jamoasi 2-o‘rin bilan final yo‘llanmasini qo‘lga kiritdilar.

Ushbu liganing **16-fevral kuni** ikkinchi yarimfinal bahslarida **“Maroqandlik bojalari”** terma jamoasi esa “Iqtisodchi”, “Uylanmagan bojalari”, “Yosh dasturchilar”, “SamAGRO” jamoalariga qarshi kechgan o‘yinda final bahslariga yo‘llanmani qo‘lga kiritishga o‘lmadi. Ikkinchi kuni bahslarda “Iqtisodchi” va “Uylanmagan bojalari” jamoalari finalga yo‘llanmani qo‘lga kiritdi.

Uchinchi kuni yarimfinal o‘yinida “Maroqand” va “Bojalari” jamoalari, finalni naqd qildilar.

Shunday qilib “Quvnoq qizlar” jamoasi final bahslarida “Yangi O‘zbekim”, “Iqtisodchi”, “Uylanmagan bojalari”, “Maroqand”, “Bojalari” hamda yuqori ball bilan final yo‘llanmasini o‘zida saqlab qolgan yettinchi jamoa, “Turist” jamoalari bilan bahslashadilar.

**2024-yil 21-fevral kuni** “Mutolaa zavqi” loyihasining **4-sonida Said Ahmadning “Ufq”** asari muhokamasi tashkil etildi.

Muhokamada Korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazorat bo‘limi boshlig‘i Zikrilla Yasakov, bo‘lim xodimasi Musavvara Ibragimova, 1-sonli TTJ tarbiyachi-pedagogi Aziz Tursunovlar ham faol ishtirok etib, asar bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirib o‘tdilar.

Loyihaning bugungi soni O‘zbekiston xalq yozuvchisi, O‘zbekiston qahramoni Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasiga bag‘ishlandi. Trilogiyada XX asr o‘rtalarida xalq boshiga tushgan urush musibatlari, hijron alamlari, odamlar ko‘ksidagi armonlar yozuvchi iste‘dodiga xos ehtiros, zo‘r ilhom bilan aks ettirilgan. Asarda Nizomjon, Ikromjon, Jannat, Azizxon, Dildor, Asrora kabi teran, xalqchil, yorqin milliy obrazlar yaratilgan.

Kitobga so‘nggi nuqta qo‘yaman. Shunday deb o‘ylaymanu, birdan yuragim huvillab qoladi. Nahotki, ajralish payti keldi. Axir, men sizni o‘n yil qalbimda ardoqladim. O‘n yil izingizdan yurdim. Qahraton qish kechalari bo‘ronning guvillashiga quloq solib sizni o‘yladim. Saraton jaziramarida Yozyovon cho‘llarini kezib sizni qidirdim. Odamlar orom uyqusida yotganda men tunni tongga ulab siz bilan gaplashdim. Quvonchingizga quvonib, dardingizga o‘rtanib yozdim. **Said Axmad – Ufq.**

Jarayonda talabalar ham o‘zlarining takliflari va tanqidiy qarashlari bo‘yicha fikr almashdilar va loyihaning keyingi soniga Shukrulloning “Kafansiz ko‘milganlar” asari bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rishga kelishib oldilar.

**2024-yil 22-fevral kuni** Samarqand viloyat Qo‘g‘irchoq teatrida bo‘lib o‘tgan Oliy ta‘lim muassasalari Talabalar teatr studiyalari respublika tanlovining hududiy (ikkinchi) bosqichida



Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetining “Ulug‘bek vorislari” teatr jamoasi ishtirok etib, **faxrli 1-o‘rinni qo‘lga kiritdi**.

“Ulug‘bek vorislari” teatr jamoasi **Karlo Gotsining “Baxtli gadolar”** asarini sahnalashtirib, mahorat bilan ijro etdilar.

**2024-yil 23-fevral kuni** Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida Talaba klublari bo‘limi va Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” bo‘limi bilan hamkorlikda yo‘lga qo‘yilgan **“Mutolaa zavqi” loyihasining 5-soni** 4-son Talabalar turar joyida bo‘lib o‘tdi.

Unda O‘zbekiston xalq shoiri, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti, “Do‘stlik” va “El-yurt hurmati” ordenlari sohibi **Shukrullo Yusupovning “Kafansiz ko‘milganlar”** romani muhokama qilindi.

Roman muhokamasida barcha talabalar faol ishtirok etishdi. Madaniy meros obyektlarini asrash fakulteti 2-bosqich talabasi Oltinoy Baxriddinova tomonidan romanning o‘tgan asrda o‘zbek ziyoli qatlamining boshidan o‘tgan tahqirlar haqidagi eng ta’sirli lavhalari mutolaa qilib berildi. Ushbu asar Shukrullo Yusupovning avtobiografik asari bo‘lib, o‘quvchiga qatag‘on davri haqida hikoya qilib berishi bilan ahamiyatlidir. Shukrullo Yusupov ham qatag‘on davrining ikkinchi to‘lqini jabrini chekkan, Sibirga badarg‘a etilgan o‘zbek ijodkorlaridan biri sifatida asar voqealarini haqqoniy va real bo‘yoqlarda tasvirlab bergan.

Mutolaa davomida o‘zbek millatining mustaqillik yo‘lida chekkan azoblari, millatni yo‘q qilish uchun qilingan adolatsizliklar haqida so‘z yuritildi.

**2024-yil 23-fevral kuni** Volontyorlar maktabi 6-mavsum "Media liderlari" guruhining Kitobxonlik media targ‘iboti mavzusidagi 1-loyihasi universitet talaba-yoshlari o‘rtasida o‘tkazildi.

Guruhimizning bir ovozdan tayyorlagan "Kitobxonlik media targ‘iboti" 1-loyihasiga ko‘ra: Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirishda —kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha reja asosida loyiha bajarildi.

Bugungi globallashuv davri, axborot asri yoshlarda kitob o‘qishga qiziqishni yanada oshirish uchun targ‘ibotning zamonga hamohang, ta’lim standartlariga mos yangi usullaridan foydalanishni taqozo qilmoqda.

Shu bois, ochiq muloqot shaklida tashkil etilgan ushbu loyihamiz kitobxon yoshlarimiz safi yanada kengayishiga xizmat qiladi, – deydi guruh koordinatori Ch. Xushmurodova.

**2024-yil 28-fevral kuni** “Mutolaa zavqi” loyihasining **7-soni – kino kunlari taqdimoti doirasida “Said bilan Saida” filmi taqdimoti** bo‘lib o‘tdi.

Taqdimotni Talaba klublari bo‘limi boshlig‘i Charos Xushmurodova kirish so‘zi bilan ochib berdi. Shundan so‘ng Korrupsiyaga qarshi kurash “Komplaens nazorat” bo‘limi boshlig‘i Zikrilla Yasakov film qahramonlari - Said Ahmad Husanxo‘jayev va Saida Zunnunovalar hayoti va ijodi haqida to‘xtalib o‘tdi.

Taqdimot so‘ngida “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasida katta o‘qituvchisi Gulchehra Xoliqova hamda Talabalar dekanati tyutori Marg‘uba Muratovalar ham adib hayoti va ijodi haqida xulosa o‘rnida ibratli fikrlarni aytib o‘tdi.

Loyihaning keyingi sonida “Jahon adabiyoti” ruknida **Li Myon Bakning “Mo‘jiza sodir bo‘lmaydi”** nomli asari muhokama mavzusi sifatida tanlandi.

**2024-yil 28-fevral kuni** universitetda tarix fanlari doktori, professor Shakar Axadovning xotirasiga bag‘ishlangan zakovat **XOTIRA TURNIRI** o‘tkaziladi. Shu bilan birga SamDAQU zakovat klubining 7-tur o‘yinlari ham bo‘lib o‘tdi.

**2024-yil 1-mart** – bahor faslining ilk sanasida Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida 2- va 4-talabalar turar joylarining talaba qizlari o‘rtasida

Zulfiyaxonim tavalludining 109 yilligiga bag'ishlangan "**Zulfiyaxonim izdoshlari**" nomli tanlov tashkil etildi.

Tanlovni Talaba klublari bo'limi boshlig'i Charos Xushmurodova olib bordi. Tanlovda so'zga chiqqan Talabalar turar joyi ofisi bo'lim boshlig'i Baxrom Aminov, O'rta Osiyo xalqlari tarixi instituti qoshidagi Turon Fanlar akademiyasining akademigi, professor Dilshoda Sultanova, 4-son TTJ pedagog-tarbiyachisi Norbuvi Shayzakova hamda "Yosh kitobxon" klubi a'zosi Abrorbek Hayitboyevlar tanlov haqida iliq fikrlar bildirib, TTJ jamoalariga omad tiladi.

Tanlovda jamoalar ketma-ketligida shoira hayoti va ijodi haqida ma'lumotlar, she'rlari va badiiy sahna ko'rinishi namoyish etildi.

Tadbir so'nggida jamoalarning faol ishtiroki inobatga olinib, o'rinlarga ajratildi va yakuniy natijalarga ko'ra:

I o'rin - 4-son Talabalar turar joyi qizlari jamoasiga;

II o'rin - 2-son talabalar turar joyi qizlari jamoasiga berildi va esdalik sovg'alari topshirildi.

**2024-yil 1-mart kuni** uzoq yillar Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish institutida faoliyat yuritgan, "Ijtimoiy va tabiiy fanlar" kafedrasining "**Antique world**" Antik dunyo Xalqaro ilmiy akademiyasi akademigi, tarix fanlari doktori, **professor Shakar Axadovning** xotirasiga bag'ishlangan "**Ma'naviyat chirog'i**" nomli ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.

Tadbirda olimning hayot yo'li, ilmiy-uslubiy hamda pedagogik faoliyati, shuningdek, kafedra va universitet ijtimoiy jarayonlaridagi hissasi hamkasblar va shogirdlar tomonidan xotirlandi. Xotiralarda ma'naviyat fidoyisi Shakar Axadovning "ma'naviy makon, ma'rifatli jamiyat" yo'lidagi xizmatlari alohida e'tirof etildi. Xotira tadbirida universitet professor-o'qituvchilari, talaba-yoshlar bilan bir qatorda olimning farzandlari ham ishtirok etdilar.

**2024-yil 4-mart kuni** Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan "**Ilmli ayol-jamiyat va millat tayanchi**" mavzusida xotin-qizlar forumi o'tkazildi.

Unda "Ma'naviyat ko'zgusi, millat tayanchi xotin-qizlardir", "Universitetda o'quv-uslubiy va sifatli ta'lim jarayonidagi faollikni ta'minlashda xotin-qizlarning roli", "Ilmiy tadqiqot sohasidagi samaradorlikning universitet xotin-qizlari faoliyatida aks etishi", "Ma'naviy-ma'rifiy va ijtimoiy rivojlanish sohasida universitet xotin-qizlarining o'rni va roli" kabi mavzulardagi qiziqarli ma'ruzalar tinglandi. Universitet xotin-qizlarining boshqaruv, o'quv-uslubiy, ilmiy pedagogik hamda ijtimoiy yo'nalishlardagi faoliyatlari tahlil qilindi. Xotin-qizlarning ijtimoiy-ma'naviy hayotdagi faolligini yanada oshirishga qaratilgan taklif va fikr-mulohazalar bildirildi.

Shuningdek, forum ishida 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan ta'lim tizimidagi fidokorona xizmatlari, zamonaviy va keng tafakkurli yosh avlodni shakllantirishga qo'shgan munosib hissasi uchun bir qator professor-o'qituvchilar, ishchi-xodimlar hamda faxriy ayollarga universitet tashakkurnomalari taqdim etildi.

**2024-yil 6-mart kuni** Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida xorijiy universitetlar hamkorligida Ipak yo'li III xalqaro ilmiy-tadqiqot Kongressining yalpi majlisi va sessiyalari bo'lib o'tdi.

Ma'lumki, "Buyuk ipak yo'li" qadimdan Sharq va G'arb mamlakatlarini o'zaro mustahkam aloqalarining ramzi bo'lib hisoblanadi. Ushbu transkontinental karvon yo'li 10 ming kilometrlarga cho'zilgan bo'lib, Sharq mamlakatlarini O'rta yer dengizi bilan bog'lagani bilan ham ahamiyatlidir. Albatta, Ipak Yo'li tufayli nafaqat noyob savdo mollari yetkazilardi, balki keng ko'lamli bilim, madaniyat, texnologiya almashinuvi, diplomatik aloqalar ham amalga oshirilgan.

Kongressning ochilish marosimida mehmonlardan Samarqand viloyat hokimi o'rinbosari Rustam Qobilov, Turkiyaning Samarqanddagi bosh konsulxonasi rahbari Salih Janer, "Ipak yo'li" xalqaro turizm va madaniy meros universiteti prorektori Dr. Juliboy Eltazarov, Ukraina ilmiy

tadqiqotlari instituti IKSAD Turkiya Oliy komissiyasi a'zosi Dr. Mykola Vaskiv hamda SamDAQU rektori Dr. Chidem Turkyilmaz tabrik so'zlarini yo'lladilar va Kongress ishiga omad tiladilar.

Mazkur xalqaro Kongress faoliyatida O'zbekiston, Ozarbayjon, Turkiya, Qozog'iston, Slovakiya va Ukrainaning qator oliy o'quv yurtlari va ilmiy muassasalarining professor-o'qituvchilari, doktorant va magistrantlari qatorida universitet Talaba klublari bo'limi qoshidagi "Yosh volontyorlar" klubi a'zolari ham ishtirok etdilar.

Kongress joriy yilning 6-8 mart kunlariga mo'ljallangan bo'lib, hamkor oliy o'quv yurtlari, jumladan Igdur universiteti (Turkiya), Iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy tadqiqotlar instituti (Turkiya), Naxchivon davlat universiteti (Ozarbayjon), Ozarbayjon davlat iqtisod universiteti (Ozarbayjon), Baku Yevroosiyo universiteti (Ozarbayjon) hamkorligida tashkil etilgan.

**2024-yil 6-mart kuni** Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti Talabalar dekanati va San'at kafedrasini hamkorligida 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan talaba-yoshlar o'rtasida "Latofat va nafosat sohibalari, ezgulik va fidoiylik ramzi" mavzusida eng yaxshi rasmlar tanlovi e'lon qilingan edi.

Joriy yilning 6-mart kuni Arxitektura fakultetida "Latofat va nafosat sohibalari, ezgulik va fidoiylik ramzi" mavzusidagi eng yaxshi rasmlar tanloviga kelib tushgan rasmlar taqdimoti bo'lib o'tdi.

Tanlovga kelib tushgan rasmlar mutaxassislar tomonidan ko'rib chiqilib baholandi. Baholash natijalariga ko'ra:

1-o'rin — Ruxsoro Bekchanova, 2-bosqich madaniy me'ros obyektlarini asrash ta'lim yo'nalishi talabasi;

2-o'rin — Alloma Muhammadova 2-bosqich Dizayn: interyerni loyihalash ta'lim yo'nalishi talabasi va Behzod Rajabov 2-bosqich arxitektura ta'lim yo'nalishi talabasi;

3-o'rin — Shoxrux Bahodirov 1-bosqich arxitektura yodgorliklari rekonstruksiya va restavratsiyasi ta'lim yo'nalishi talabasi, Gulira'no Ro'ziyeva 3-bosqich arxitektura ta'lim yo'nalishi talabasi va Ziyodulla Shukurov 4-bosqich arxitektura yodgorliklari rekonstruksiya va restavratsiyasi ta'lim yo'nalishi talabasi egalladilar.

Shuningdek tanlovda "Professional yondashuv" nominatsiyasi bo'yicha Madina Murodova 1-bosqich arxitektura ta'lim yo'nalishi talabasi munosib ko'rildi.

**2024-yil 6-mart kuni** Volontyorlar maktabi 6-mavsum "Media liderlari" guruhining Ekologik media targ'ibot loyihasi "Ekotozalik" mavzusidagi 2-loyihasi Alisher Navoiy nomidagi istirohat bog'ida o'tkazildi.

Guruhimizning bir ovozdan tayyorlagan "EKOTOZALIK" 2-loyihasiga ko'ra: Avvalgi yillardagi Navro'z, Mustaqillik va shu kabi o'tkazilgan bayramlarda daraxtlarni ularga bog'langan iplar, lenta, matolar, daraxt tanasiga ozor yetkazuvchi unga qoqilgan miq va shunga o'xshash narsalardan tozalash reja asosida bajarildi.

Loyihani o'tkazishdan maqsadimiz insonlarning qalbida ona tabiatimizga bo'lgan mehr-muhabbatini, qiziqishini yanada shakllantirish. Tabiatimizning har bir ne'matini ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, daraxtlarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish singari tuyg'ularni ularning ongu shuurida shakllantirish orqali atrof muhitga mehrli qilib ko'rsatishdir.

Loyihamiz orqali insonlar qalbida ona tabiatimizga mehr-muhabbat tuyg'ularini namoyish qilgan holda tabiatga mehrli bo'lish, chiqindilarni belgilangan joyga tashlash, daraxtlar shoxini sindirmaslik, daraxtlarni parvarish qilish kabi jihatlarni sodda ko'rinishda amalda ko'rsatib berdik.

**2024-yil 13-mart kuni** Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida "Mutolaa zavqi" loyihasining **8-soni** doirasida shoir Abdulla Oripov tavalludining 83 yilligi munosabati bilan "Sen bahorni sog'inmadingmi" mavzusida adabiy-badiiy kecha tashkil etildi.

Adabiy-badiiy kecha mehmoni sifatida “Rahmdillik” jamiyati direktori Bibisora Oripova hamda Winrock International loyahasining Samarqand bo'yicha koordinatori Umid Oripovlar hamda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Samarqand viloyat bo'limi tarjimon-yozuvchisi Gulrux Yusupovalar ishtirok etdi. Kechada shoir hayoti va ijodi bilan bog'liq ko'plab hayotiy jarayonlar xotirlandi.

“Yosh kitobxon” klubi a'zolari va akademik litsey o'quvchilari tomonidan ijro etilgan badiiy chiqishlar barchaga xushkayfiyat bag'ishladi.

**2024-yil 13-mart kuni** Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida “Zakovat” intellektual o'yinining navbatdagi tur-o'yinlari bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-noyabrdagi PQ-416-son qarori va shu qarorning 2-ilovasi Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetini transformatsiya qilish va kompleks rivojlantirish bo'yicha “Yo'l xaritasi”ning 11-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida universitet rektorining **2024-yil 14-martdagi** “Talabalar klublari” faoliyatini takomillashtirish to'g'risida”gi **75-u-sonli buyrug'i** tasdiqlandi.

Buyruqqa muvofiq universitetda qo'shimcha yangi klublar tashkil etildi va shartli ravishda bu klublar **“Yangi avlod shaharsozligi”, “Interyer dizayni”, “San'at va dizayn”** deb nomlandi.

**2024-yil 14-mart kuni** Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida Volontyorlar maktabi o'quvchilariga **“Faktchek nima?”** mavzusida mini-trening tashkil etildi.

Trening davomida nazariy va amaliy mashg'ulotlar hamda viktorina ham o'tkazildi. Jumladan “Axborot nima? Axborot turlari, ijtimoiy tarmoqlar va ularning foydalanuvchilari to'g'risida tushunchalar, Feyk nima? Uning turlari va xususiyatlari, feyk axborotni tarqatishdan an'anaviy maqsad hamda sabablari” to'g'risidagi keng tushunchalar berildi.

“Treningni o'tkazishimizda yaqindan yordam bergan SamDAQU rahbariyatiga va media jamoasiga minnatdorlik bildiramiz!” – deydi media-trener Jamoliddin Imomnazarov.

**2024-yil 14-mart kuni!** Soat 14:00 da QVZ!

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi Samarqand viloyati Kengashi, “Sino” aksiyadorlik jamiyati va “Imron Yog'du Art” MCHJ bilan hamkorlikda “Quvnoqlar va Zukkolar” tanlovi doirasida Samarqandda **“ULFATLAR” ligasining FINAL o'yiniga** start berildi!

Xabaringiz bor bo'lib o'tgan yarimfinal o'yinlarida universitetimizning “Quvnoq qizlar” jamoasi yuqori natija bilan final yo'llanmasini qo'lga kiritgan edi. “Quvnoq qizlar” jamoasi final bahslarida “Yangi O'zbekim”, “Iqtisodchi”, “Uylanmagan bojalar”, “Maroqand”, “Bojalalar” hamda “Turist” jamoalariga qarshi sahnaga chiqdi va **3-o'rinni qo'lga kiritdilar!**

**2024-yil 16-18-mart kunlari** mamlakatimizda “Obod va fayzli mahalla — yurt ko'rki” shiori ostida obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish umumxalq xayriya hashari bo'lib o'tmoqda.

Shu munosabat bilan bugun Murzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti Yoshlar ittifoqi BT kengashi va ko'ngilli **volontyorlardan** iborat talaba yoshlar ham erta tongdan universitet hududini obodonlashtirish ishlarini boshlab yubordilar.

Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti rahbariyati, ishchi-xodimlari hamda professor-o'qituvchilari va talaba-yoshlari ham “Obod va fayzli mahalla – yurt ko'rki” shiori ostida umumxalq xayriya hasharida faol ishtirok etdilar.

Universitet hududini obod qilish maqsadida erta tongdan deyarli barcha universitet ziyolilari, ularning farzanlari, “Yosh volontyorlar” klubi va universitet Yoshlar ittifoqining har bir a'zosi sidqi dildan universitet atrof-muhitini ozoda-sarishtaligini ta'minlash maqsadida jam bo'ldilar.

Juda ko‘pchilik bo‘lib, universitet hovlisi supurildi, universitet hududi va Mirzo Ulug‘bek nomidagi xiyobon o‘t, has-hashak va boshqa narsalardan tozalandi, daraxtlar oqlanib, ko‘chatlarning taglari yumshatildi. Hashardan so‘ng esa Axborot xizmati xodimlari tomonidan esdalik uchun jamoaviy foto muhrlandi. Bir so‘z bilan aytganda bu yilgi hashar juda maroqli bo‘ldi!

Samarqand Volontyorlar maktabi **6-mavsumi** tez kunlarda o‘z nihoyasiga yetadi. Xabaringiz bor bu mavsumda umumiy **70 nafar volontyor** qabul qilingan edi.

Ushbu mavsumga yozilgan Yosh volontyorlar – volontyorlikning asosiy qoidalari va tizimi to‘g‘risida tushuncha va bilimlarni egalladilar. Mavsum davomida volontyorlar bir-birlari bilan yaqindan tanishdilar. Birgalikda sahovatli ishlarda birdam bo‘ldilar hamda ijtimoiy loyihalarni amalga oshirdilar.

Eslatib o‘tamiz ushbu mavsumdagi yoshlarning 50% dan ko‘prog‘ini Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti yoshlari tashkil etadi. Shu bois asosiy darslar SamDAQUda olib borildi.

**2024-yilning 16-mart kuni** 6-mavsum ishtirokchilari uchun yakuniy test jarayonlari olib borildi. Mavsum davomida olingan bilimlar takrorlandi.

**2024-yil 28-mart kuni** Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti 5 tashabbus markazida “Mutolaa zavqi” loyihasining **9-soni** “O‘zbek she‘riyati” rukni doirasida shoira Zulfiyaxonim Isroilova tavalludining 109 yilligi munosabati bilan **“Bahor sog‘inchi”** mavzusida adabiy kecha tashkil etildi.

Kechada shoira hayoti va ijodi bilan bog‘liq ko‘plab hayotiy jarayonlar xotirlandi. “Yosh kitobxon” klubi va “Ulug‘bek vorislari” teatr jamoasi a‘zolari Zabihulloh Hamidulloyev va Oltinoy Baxriddinova tomonidan ijro etilgan badiiy chiqishlar barchaga xushkayfiyat ulashdi.

Tadbir so‘ngida Talaba klublari bo‘limi boshlig‘i Charos Xushmurodova loyihada yangi bir rukn – “Yosh iste‘dodlar” rukni qo‘shilishi munosabati bilan bugungi sonda mehmon sifatida ishtirok etayotgan Dilshod Ismoilov va Kamoliddin Abdusalomovlarning ijod namunalari kitobxon talabalar va she‘riyat shaydolariga taqdim etdi.

**2024-yil 29-mart kuni** Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida “ZAKOVAT” klubi tomonidan universitetimizda navbatdagi **“SamDAQU QUIZ”** o‘yini tashkil etildi.

Bunda universitetning talabalari, professor-o‘qituvchilari va ishchi xodimlaridan iborat jamoalar ishtirok etdilar.

Bir qaraganda “Zakovat” intellektual o‘yinining savollari zerikarli deb hisoblaydiganlar uchun ushbu ko‘ngilochar o‘yin juda manzur keldi. Sababi bu o‘yinda kino, musiqa hamda rasmi, qiziqarli va mantiqiy savollar o‘ynaldi. Ishtirokchilarning fotosuratlarida aks etgan his-hayajonlaridan buni ko‘rishingiz mumkin.

**2024-yil 2-aprel kuni** Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida Samarqand Volontyorlar maktabining **6-mavsumi bitiruvchilari** uchun **sertifikatlarni topshirish marosimi** o‘tkazildi.

Tashkilotchilar tomonidan “mavsum qabulida rekord daraja” deb ta‘rif berilgan 1 oylik o‘quv kurslarida 70 ga yaqin talaba-yoshlar o‘z malakalarini oshirdilar. Shundan 35 nafari SamDAQU “Yosh volontyorlar” klubi a‘zolari hisoblanadi.

Mavsum davomida volontyorlar nazariy hamda amaliy bilimlarga ega bo‘ldilar. Jamoalarga bo‘lingan holda bitiruv loyihalari doirasida saxovatli ishlarga qo‘l urildi.

Kuni kecha universitet kichik faollar zalida mavsumni a‘lo darajada yakunlagan bitiruvchilarga sertifikatlar topshirish marosimi o‘tkazildi. Tadbirda Samarqand viloyat Yoshlar ishlari agentligi Bolalar, xotin-qizlar, ta‘limdagi yoshlar, volontyorlar bilan ishlash bo‘yicha bo‘lim boshlig‘i Shaxzoda Xamidova, Respublika volontyorlar maktabi eksperti Jamoliddin

Imomnazarov, Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor Sherzod Uzoqov, Talabalar dekanati dekani Bekzod Saidov, Talaba klublari bo'limi boshlig'i Charos Xushmurodovalar so'zga chiqdilar va mavsum bitiruvchilarining keyingi faoliyatiga omad va muvaffaqiyatlar tiladilar.

Shundan so'ng, 6-mavsum davomida bitiruvchilar tomonidan birgalikda qo'l urilgan ezgu ishlarning sarhisobiga bag'ishlangan videoroliklar taqdim etildi.

Tadbir so'ngida Volontyorlar maktabi 6-mavsum bitiruvchilariga sertifikatlar topshirildi. Bitiruvchilardan Shahrizoda Omonova, Nargiza Eraliyeva, Zokirbek Abdullayev va Karomat Nuriddinova tomonidan o'quv jarayonlarini o'tkazgan mentorlar va tashkilotchilarga bitiruvchilar nomidan minnatdorlik bildirdi. Esdalik uchun fotolar muhrlandi.

**2024-yil 2-aprel kuni** "Volontyorlik faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash va muvofiqlashtirishga qaratilgan Harakatlar dasturi to'g'risida"gi 2022-yil 24-avgustdagi 01-07/31, 31 q/q, 35 q/q, 8 q/q-son qo'shma Qarorlariga muvofiq Samarqand viloyat Yoshlar ishlari agentligi, Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti va O'zbekiston Volontyorlari Assotsiatsiyasi o'rtasida uch tomonlama o'zaro kelishuv **MEMORANDUMI** imzolandi.

Tomonlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik memorandumga muvofiq, kelgusida tashkil etiladigan loyihalar asosida universitetda volontyorlik harakatlarini, "Tabiatni asraymiz" shiori ostida ekotozalik tadbirlari, "Media targ'ibot" loyihasi doirasida kitobxonlik targ'iboti bo'yicha talabalar o'rtasida tashabbuskor guruhlarini tashkil etish masalalari kelishib olindi.

Eslatib o'tamiz Mirzo ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti oliy ta'lim muassasalari o'rtasida tashabbus bilan chiqqan ilk oliygo'his hisoblanadi.

**2024-yil 2-aprel kuni O'zbekiston volontyorlar assotsiatsiyasi** va Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti o'rtasida o'zaro kelishuv memorandumini imzolash doirasida yurtimiz volontyorlari nomidan yoshlar masalalari va ma'naviy ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor **Uzoqov Sherzod Xamidovichga "Ezgulik elchisi" faxriy nishoni** topshirildi.

**2024-yil 3-aprel kuni** Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida "Zakovat" intellektual o'yinining navbatdagi tur o'yinlari bo'lib o'tdi.

1-o'rin "Diamond" jamoasi;

2-o'rin "Economist" jamoasi;

3-o'rin "Aysberg" va "Metsenat" jamoalari qo'lga kiritdilar.

Jami 11 ta tur natijalariga ko'ra "Alliance" jamoasi peshqadamlik qilmoqda.

**2024-yil 5-aprel kuni** Samarqand davlat universitetida "**Ma'rifat maydoni**" respublika tanlovining 2-hududiy bosqichi bo'lib o'tdi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining "Oliy ta'lim muassasalari talaba-yoshlari o'rtasida "Ma'rifat maydoni" tanlovini o'tkazish to'g'risida"gi buyrug'iga asosan 5-aprel kuni Samarqand davlat universitetida tanlovning 2-hududiy bosqichiga start berildi.

Unda Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetining Talaba klublari bo'limi va Yoshlar ittifoqi universitet boshlang'ich tashkiloti boshchiligidagi "Ma'rifat targ'ibotchilari" jamoasi SamISI, SamDTU, TATU Samarqand filiali, SamDCHTI, SamATI jamoalariga qarshi bellashdilar.

Universitet talabalaridan tashkil topgan "Ma'naviyat targ'ibotchilari" jamoasi o'z sahna ko'rinishlarini namoyish etdi va **1-o'rinni** qo'lga kiritdi.

**2024-yil 8-aprel kuni** Mirzo ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti Talaba klublari bo'limi tomonidan kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish maqsadida talaba-yoshlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish, kitobxonlik va mutolaa madaniyatini keng targ'ib etish, kitobga bo'lgan qiziqishini yanada

oshirish, targ'ibot-tashviqot ishlarini samarali va tizimli tashkil etish va rag'batlantirish maqsadida mavjud fakultetlar talabalari o'rtasida **"Yosh kitobxon talabalar ligasi"** tanlovi tashkil etildi.

Mazkur tanlovda 30 nafardan ziyod talaba-yoshlar 2 shart bo'yicha o'zaro bellashdilar.

Tanlov yakuniy natijalariga ko'ra:

1-o'rinni – Madaniy meros obyektlarini asrash fakultetining "Hurriyat" jamoasiga;

2-o'rinni – Iqtisodiyot va boshqaruv fakultetining "Najot" jamoasiga;

3-o'rinni – Arxitektura fakultetining "Yosh arxitektorlar" jamoasiga nasib etdi.

Jamoalar diplom va pul mukofoti bilan taqdirlandilar.

**2024-yil 15-aprel kuni** Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida "Ekologiyaga oid bilimlar kuni" munosabati bilan **"Eko-Zakovat"** intellektual o'yini o'tkazildi.

Yakuniy natijalarga ko'ra:

1-o'rinni "Diamond";

2-o'rinni "Daholar batalyoni";

3-o'rinni "Ekonomist" va "Yangi yulduzlar" jamoalari qo'lga kiritdi.

**2024-yil 16-aprel kuni** Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida "Ilhom mukofoti" tanlovining saralash bosqichi bo'lib o'tdi.

Test sinovlarini boshlashdan oldin talabgorlarga Talaba klublari bo'limi boshlig'i Charos Xushmurodova tomonidan **"Ilhom mukofoti"** tanlovi to'g'risida, saralash va respublika bosqichlari xususida to'liq tushuncha berib o'tildi.

"Ilhom mukofoti" tanlovi saralash bosqichi uchun test sinovlari kun mobaynida o'tkazildi.

**2024-yil 16-aprel kuni** Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti 2-son talabalar turar joyida "Pazanda qizlar" ko'rik tanlovi bo'lib o'tdi.

Tanlovda talaba qizlarning o'zbek milliy taomi bo'lgan somsa pishirishdagi mahoratlari sinovdan o'tkazildi.

Tanlovni Talabalar dekani Bekzod Saidov, Talaba klublari bo'limi boshlig'i Charos Xushmurodova, Yoshlar yetakchisi Zabihullo Hamidulloyev va 2-son TTJ tarbiyachisi Dilorom Normatova baholagan natijalarga ko'ra:

1-o'rinni – Iqtisodiyot va boshqaruv fakulteti Qiymat injeneringi yo'nalishi talabasi Shaxzoda Xazratova va Iqtisodiyot yo'nalishi talabasi Shaxina Najmiddinova;

2-o'rinni – Qiymat injeneringi yo'nalishi talabasi Shaxzoda Ramazonova;

3-o'rinni – Qiymat injeneringi yo'nalishi talabasi Mohira Samandarovalarga nasib etdi.

G'oliblarga Talabalar dekani Bekzod Saidov tomonidan esdalik sovg'alari topshirildi.

**2024-yil 17-aprel kuni** Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida "Zakovat" intellektual o'yinining navbatdagi tur o'yinlari bo'lib o'tdi.

**2024-yil 18-aprel kuni** Talaba klublari bo'limi qoshida talabalar talab va istaklariga binoan yangi klub faoliyati yo'lga qo'yildi.

**Stend-UP** - bu haqiqiy kulgu ixlosmandlari kutgan, satira va yumorlarga boy, yuqori darajadagi kayfiyat ulashuvchi ko'ngilochar shou dasturlar taqdim etadigan klub.

**2024-yil 22-aprel kuni** Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetining Zakovat terma jamoasini yangidan shakllantirish, terma jamoaga kuchli intellektual salohiyatga ega, bilimli yoshlarni jalb etish maqsadida "Zakovat marafoni" bo'lib o'tdi.

Natijalarga ko'ra yangilangan SamDAQU Zakovat terma jamoasini endilikda quyidagi bilimdonlar tashkil etadi:

1. Navruz Ibragimov (21 ball)

2. Ismoil G'aniyev (20 ball)

3. Jonibek Eshov (18 ball)

4. Zafar Abduljalilov (17 ball)

5. Temur Ibodullayev (17 ball)

6. Muazzam Boymurodova (16 ball)

**2024-yil 25-aprel kuni** Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida Samarqand shahridagi imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan kasb-hunar maktabidan Manzura Ashurova va Vazira Mardonovalar tomonidan **“An’anaviy beshik bezaklari”** mavzusida beshiklarni bezatish tarixi haqida suhbat va tadbirlar o‘tkazildi.

Tadbirda Arxitektura fakulteti o‘qituvchilari, Talabalar dekanati va Talaba klublari a‘zolari ishtirok etdilar.

**2024-yil 25-aprel kuni** biriktirilgan adiblar tashrifi kutilayotgani munosabati bilan Talabalar dekanati xodimlari, dekan o‘rinbosarlari, tyutorlar va talaba-yoshlar ishtirokida tadbir tashkil etildi.

Tadbirni universitet yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori Sherzod Uzoqov tomonidan Oliy ta‘lim muassasalariga biriktirilgan adiblar haqida ma‘lumotga ko‘ra universitetga O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zolari, jumladan Respublika rassomlar uyushmasi a‘zosi, Abdulla Qodiriy mukofotiga sazovor bo‘lgan, “O‘zbekiston xalq rassomi” unvoni va “El-yurt hurmati” ordeni bilan taqdirlangan Mirzayev Alisher To‘laganovich ya‘ni Alisher Mirzo, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasidagi “Yoshlik” adabiy-ijtimoiy jurnalining bosh muharriri, “Yo‘l qarayotgan kishi”, “Bo‘ron tingan kecha” va “Tashvishi yo‘q odamlar” hikoyalar to‘plami muallifi Nurilla Choriyev, “Kuch — adolatda” huquqiy gazeta birlashgan tahririyati muxbiri, “Gumroh”, “Jasorat yo‘li”, “Bahodir”, atoqli davlat arbobi va yozuvchi Sharof Rashidovning “Kashmir qo‘shig‘i” asari asosida insenirovka qilingan “Kashmir qo‘shig‘i” spektakllari muallifi Sardor Hamroyevlar to‘g‘risida muhim ma‘lumotlar berildi.

Shuningdek, “Yosh kitobxon” klubi a‘zolari Malohat Dilmurodova, Asila Xudoynazarova, Maftuna Ikromovalar tomonidan adiblar hayoti va ijodi bilan bog‘liq qo‘shimcha ma‘lumotlar berildi.

Tadbir so‘ngida 29-aprel kuni bajarilishi lozim bo‘lgan ishlar mas‘ullar bilan kelishib olindi.

**2024-yil 25-aprel kuni** Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida **“Mutolaa zavqi”** loyihasing navbatdagi **10-soni** Talabalar dekanati xodimlari, tyutorlar va “Yosh kitobxon” klubi a‘zolari ishtirokida bo‘lib o‘tdi.

Bu sonda “Jahon adabiyoti” ruknida **Paulo Koeloning “Alkimyogar”** asari bo‘yicha klub a‘zosi Abror Hayitboyev tomonidan ma‘lumot berildi va muhokama olib borildi.

Loyihaning keyingi sonida “Kino taqdimoti” rukni doirasida film taqdimoti o‘tkazilishi eslatib o‘tiladi.

**2024-yil 26-aprel kuni** Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida “ZAKOVAT” klubi tomonidan universitetimizda navbatdagi **“SamDAQU QUIZ”** o‘yini tashkil etildi.

Bunda universitetning talabalari, professor-o‘qituvchilari va ishchi xodimlaridan iborat jamoalar ishtirok etdilar.

Bir qaraganda “Zakovat” intellektual o‘yinining savollari zerikarli deb hisoblaydiganlar uchun ushbu ko‘ngilochar o‘yin juda manzur keldi. Sababi bu o‘yinda kino, musiqa hamda rasmlar, qiziqarli va mantiqiy savollar o‘ynaldi. Ishtirokchilarning fotosuratlarida aks etgan his-hayajonlaridan buni ko‘rishimiz mumkin.

**2024-yil 27-aprel kuni** O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi, Yoshlar ittifoqi, Oliy ta‘lim fan va innovatsiyalar vazirligi bilan hamkorlikda barcha Oliy ta‘lim hamda professional ta‘lim muassasalari o‘qituvchi va talabalari uchun “Zoom” platformasi orqali **“Mutolaa”** loyihasi efirga uzatildi.



Loyihada tantanali teatrlashgan ochilish marosimi va taniqli yozuvchi Javlon Jovliyevning romani asosida suratga olingan **“Qo‘rqma” hujjatli filmi namoyish etildi.**

Ushbu film Sobiq sovet davrida Germaniyaning Berlin shahriga tahsil olish maqsadida borgan 70 nafar O‘zbekistonlik talaba-yoshlarning og‘ir tarzda kechgan hayoti, oq-qora manzaralari haqida tasvirlab berilgan.

Tadbirda talabalar dekanati dekani Bekzod Saidov va tyutorlar, talaba klublari bo‘limi boshlig‘i Charos Xushmurodova, SamDAQU Yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkiloti yetakchisi Zabihulloh Hamidulloyev va boshlang‘ich tashkilot koordinatorlari hamda talaba yoshlar ishtirok etishdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasining hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining oliy ta‘lim muassasalari talabalarini kitob mutolaasiga jalb etish, badiiy savodxonlik darajasini oshirish orqali ularni vatanparvarlik va yurtimiz kelajagiga daxldorlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan “Ma‘rifat ulashib” loyihasini amalga oshirish maqsadida Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetiga **29-aprel kuni** quyida ma‘lumotlari keltiriladigan adiblarning tashrifi kutilmoqda.

**2024-yil 30-aprel kuni** Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida Zakovat intellektual o‘yininig 2024-yil 1-mavsum finali bo‘lib o‘tdi.

Natijalarga ko‘ra jamoalar quyidagi o‘rinlarni egalladilar:

1-o‘rin “Diamond” jamoasi;

2-o‘rin “Daholar” batalyoni;

3-o‘rin “Metsenat” jamoasi egalladi.

**2024-yil 4-may kuni** Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida “Mutolaa zavqi” loyihasining navbatdagi soni bo‘lib o‘tdi.

Unda Ruslan Akunning **“Jannat onalar oyog‘i ostida” badiiy filmining** treylari namoyish etilib, filmning mazmun-mohiyati bo‘yicha talabalar bilan muhokamalar olib borildi.

**2024-yil 6-may kuni** Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida 9-may — Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan **“Ikkinchi jahon urishi xotiralarda” mavzusida insholar tanlovi** bo‘lib o‘tdi.

Tanlov natijalariga ko‘ra:

1-o‘rinni “Madaniy meros obyektlarini asrash” fakulteti 1-boshqich talabasi Kamoliddin Abdusalomov;

2-o‘rinni “Arxitektura” fakulteti 3-bosqich talabasi Doston Ibodullayev;

3-o‘rinni “Arxitektura” fakulteti 3-bosqich talabasi Shoxrux Yo‘ldoshov qo‘lga kiritdi.

**2024-yil 7-may kuni** 9-may – “Xotira va qadrlash kuni” munosabati bilan sport tadbirlari o‘tkazildi.

Universitet Xodimlar va talabalar boshlang‘ich kasaba uyushmasi tashabbusi bilan joriy yilning 7-may kuni universitet xodimlari va professor-o‘qituvchilari o‘rtasida sportning “Arqon tortish” hamda “Stol tennisi” turlari bo‘yicha musobaqalar o‘tkazildi.

G‘oliblarga esdalik sovg‘alari hamda diplomlar topshirildi.

**2024-yil 8-may kuni** Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida 9-may - Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan **“Universitetdagi shirin xotiralarim”** mavzusida davra suhbat tashkil etildi.

Unda universitet yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektor Sherzod Uzoqov va Abdurahmon Axunjanov barchani bayram bilan tabriklab, faoliyatdagi qizg‘in voqealar xotiri haqida gapirib berdilar.

Shuningdek muloqot davomida Evris Davronov, Ustemir Mustafayev, Axmad Ilmurodov, Shamsi Melikov, Buvisara Axmedova, Robiya Yadullayeva, Atfiya Voxidova boshidan kechirgan

qiyinchiliklari, talabalik yillaridan tortib to hozirgi kunlariga qadar shirin xotiralari bilan bo'lishdi. Rahmatli ustozlarning o'g'itlari hamda xotiralari yod etildi.

Tadbir so'nggida universitet ma'muriyati tomonidan esdalik sovg'alari va gullar hamda jamoaviy foto muhrlandi.

**2024-yil 10-may kuni** Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti Talaba klublari va Yoshlar ittifoqi hamda universitetning "Zakovat" intellektual terma jamoasi tashabbusi bilan Intellektual haftalik doirasida "SamDAQU QUIZ" o'yini tashkil etildi.

Bunda universitetning talabalari, proffessor-o'qituvchilari va ishchi xodimlaridan iborat jamoalar ishtirok etdilar.

Bir qaraganda "Zakovat" intellektual o'yinining savollari zerikarli deb hisoblaydiganlar uchun ushbu ko'ngilochar o'yin juda manzur keldi. Sababi bu o'yinda kino, musiqa hamda rasmlar, qiziqarli va mantiqiy savollar o'ynaldi. Ishtirokchilarning fotosuratlarida aks etgan his-hayajonlaridan buni ko'rishingiz mumkin.

**2024-yil 14-may kuni** Jizzax davlat pedagogika universitetining madaniyat saroyida "Ma'rifat maydoni" respublika tanlovining 3-mintaqaviy bosqichi bo'lib o'tdi.

Tanlovda Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti "Ma'naviyat targ'ibotchilari" jamoasi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining "Avloniy izdoshlari", Navoiy davlat pedagogika universitetining "Sharq yulduzlari", Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining "Ziyo" jamoalariga qarshi bellashdilar.

Tanlov natijalariga ko'ra:

1-o'rin: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Avloniy izdoshlari" jamoasi;

2-o'rin: Navoiy davlat pedagogika universiteti jamoasi;

**3-o'rin: Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti jamoasi** qo'lga kiritdi.

**2024-yil 15-may kuni** Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetining kichik faollar zalida "Mutolaa zavqi" loyihasining 12-soni "She'riyat" rukni doirasida "Yosh kitobxon" klubi a'zolari bilan navbatdagi tadbir tashkil etildi.

Tadbirni Talaba klublari bo'limi boshlig'i Charos Xushmurodova olib bordi. Tadbir davomida **Usmon Nosir hayoti va ijodi haqida** ma'lumotlar va qiziqarli faktlar klub a'zosi Abror Hayitboyev tomonidan keltirib o'tildi.

Tadbir yakunda shoir hayoti va ijodi haqida talabalar tomonidan sahnalashtirilgan videorolik namoyish etildi.

**2024-yil 17-may kuni** Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida "ZAKOVAT" klubi tomonidan universitetimizda navbatdagi "SamDAQU QUIZ" o'yini tashkil etildi.

Bunda universitetning talabalari, proffessor-o'qituvchilari va ishchi xodimlaridan iborat jamoalar ishtirok etdilar.

Bir qaraganda "Zakovat" intellektual o'yinining savollari zerikarli deb hisoblaydiganlar uchun ushbu ko'ngilochar o'yin juda manzur keldi. Sababi bu o'yinda kino, musiqa hamda rasmlar, qiziqarli va mantiqiy savollar o'ynaldi. Ishtirokchilarning fotosuratlarida aks etgan his-hayajonlaridan buni ko'rishingiz mumkin.

**2024-yil 18-may kuni** Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti "Talaba klublari" bo'limi, "Arxitektura" fakulteti tyutorlari hamda O'zbekiston yoshlar ittifoqi SamDAQU boshlang'ich tashkiloti faol a'zolari bilan birgalikda **Samarqand imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan kasb-hunar maktabiga tashrif** buyurishdi.

Tashrif avvalida universitet jamoasini, maktabning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Jahongir Xalilov kutib oldi va maktab hududi, sig'imi, faoliyat va tadbir dasturi bilan tanishtirib o'tdi.

Asosiy qismda dastlab maktab faollar zalida universitetimiz Yoshlar yetakchilar A. Mahmudov va Z. Hamidulloyevlar tomonidan o'quvchilar va ustozlar uchun ko'ngilochar shou dasturi namoyish etildi.

Dastur davomida "Ulug'bek yulduzlari" klubi a'zolari Adham Toirov va Sardor Nasriddinovlar yig'ilganlarga o'z ijodlari bilan xushkayfiyat ulashdilar.

Shundan so'ng navbat sport musobaqalariga yetib keldi.

O'quvchilar va universitet talabalari o'rtasida sportning "Shaxmat va Shashka" turi bo'yicha musoboqa o'tkazildi.

Natijalar quyidagicha:

1-o'rin - Sarayeva Gulфина;

2-o'rin - Tohirov Mirjalol

3-o'rin - Umirzoqov Shahzodbeklarga nasib etdi.

G'oliblarga universitet ma'muriyati tomonidan esdalik sovg'alari topshirildi.

Shou dasturidan so'ng, "Yosh volontyorlar" klubi a'zolari tomonidan turli xil rangdagi bo'yoqlar orqali maktab o'quvchilarining qo'llari ranglanib, "Yordam uchun cho'zilgan qo'llar" tasviri gavdalanirildi.

Talaba klublari bo'limining "Yosh rassomlar" klubi a'zolari esa esdalik uchun ko'ngilli o'quvchilarning portretlarini chizib, sovg'a sifatida ulashdilar.

"Ularning ko'zlaridagi qaynoq mehrni ko'rdik, bu ijodkor ruhiyati uchun muhim ahamiyatdir" —deydi klub a'zosi A.Xaytboyev.

Tashrif jarayonida "Media liderlari" klubi a'zolari tomonidan bir guruh yoshlar va maktabda uzoq yillardan buyon tarbiyachi bo'lib ishlaydigan, 2022-yilda Prezidentimizning "Mehnat shuhrati" ordeni bilan taqdirlangan Mardonova Nigora Ahadqulovnadandan ham intervyu olindi.

"Talaba klublari" bo'limi, "Arxitektura" fakulteti tyutorlari hamda O'zbekiston yoshlar ittifoqi SamDAQU boshlang'ich tashkiloti faol a'zolari bilan birgalikda Samarqand imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan kasb-hunar maktabiga tashrif buyurishdi.

Samarqand imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan kasb-hunar maktabida ta'lim-tarbiya olayotgan, nogironligi bo'lgan (imkoniyati cheklangan) 138-nafar o'quvchi-yoshlar hamda kasb-hunar maktabida faoliyat yuritayotgan barcha pedagog-xodimlar ishtirok etishdi.

Tashrif so'nggida maktabdagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar bilan tanishib chiqildi. Ushbu jarayonda universitetning iqtidorli talabalarini to'g'arak o'quvlariga haq to'lash evaziga soatbay ishga jalb etish bo'yicha kelishib olindi.

**2024-yil 22-may kuni** Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti qoshidagi akademik litseyda Talaba klublari bo'limi boshlig'i va koordinatorlari bilan birgalikda talaba klublari targ'ibot tadbiri o'tkazildi.

Talabalar bo'limi mutaxassisi Turdiyeva Fazilat tadbirni kirish so'zi bilan ochib berdi. Taqdimotning asosiy qismida Talaba klublari bo'limi boshlig'i Charos Xushmurodova universitetda tashkil etilgan klublar va ularning faoliyati haqida umumiy tushuncha berib o'tdi.

Shundan so'ng Mutaxassislik klublari umumiy koordinatori Jahongir Otamurodov mutaxassislik yo'nalishlari va ular bo'yicha tashkil etilgan o'quv kurslari haqida ma'lumot berdi.

Mnemonika va IT klublari koordinatori Sevinch Omonova esa klub dasturiga xos tarzda o'quvchilar bilan qiziqarli savol-javoblar tashkil etdi va faol ishtirok etgan o'quvchilarga esdalik sovg'alari ulashdi.

Taqdimot yakunida litsey o'quvchilarini qiziqtirgan savollariga mas'ullar tomonidan to'liq javob berildi.

**2024-yil 28-may kuni “Ma’rifat ulashib” loyihasi** doirasida universitetga el suygan adiblar tashrif buyurdi.

Universitet rektori qabulidan so'ng, adiblar Nurilla Choriyev va Sardor Hamroyevlar universitet kutubxonasida bo'ldilar. Kutubxonada talabalarga yaratilgan sharoitlar, ilmiy va badiiy kitoblar bilan tanishdilar.

Shuningdek universitetda olib borilayotgan ishlar hamda talaba-xodimlar ishtirokida tashkil etilgan aksiyalarda bo'ldilar.

Yoshlar bilan uchrashuv oldidan adiblar Nurilla Choriyev, Sardor Hamroyev va Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor Sherzod Uzoqov, Talabalar dekanati dekani Bekzod Saidov bilan birgalikda loyiha doirasida ko'chat ekish marosimi o'tkazildi.

Shundan so'ng faollar zalida adiblar va yoshlar bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda elimiz suygan adiblardan Nurilla Choriyev va Sardor Hamroyev ishtirok etmoqda. Suhbat davomida adiblar tomonidan qiziqarli jahon va milliy adabiyot durdonalari hisoblangan bestseller kitoblardagi qimmatli ma'lumotlar, o'z hayot yo'llarida ko'rgan kechirganlari hamda tajribalari bilan o'rtoqlashdilar.

**2024-yil 1-iyun kuni** Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti "Yosh volontyorlar" klubi a'zolari birgalikda 1-iyun - "Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni" munosabati bilan Samarqand viloyat Ko'p tarmoqli bolalar shifoxonasiga tashrif buyurishdi.

Tashrif davomida turli xil rangdagi bo'yoqlar orqali bolalarning qo'llari ranglanib, "Quvnoq qo'llar" tasviri gavdalantirildi va bolajonlar bilan turli xil ko'ngilochar o'yinlar o'ynaldi.

**2024-yil 2-iyun kuni** Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti va Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali talaba-qizlar jamoalari o'rtasida tashkil etilgan **“WOMEN MIND”** loyihasining final bosqichi bo'lib o'tdi.

Bellashuvda ikki universitetning Yoshlar ittifoqi yetakchilari, Talaba qizlar koordinatorlari, Talaba klublari bo'limi boshlig'i va latofatli talaba-qizlar qatnashishdi.

Bellashuv natijalarga ko'ra:

1-o'rin. "Ideal qizlar" (SamDAQU)

2-o'rin. "Finance" (TDIU SF)

3-o'rin. "MMOA qizlari" (SamDAQU) jamoalari qo'lga kiritdi va munosib taqdirlandi.

**2024-yil 23-iyun kuni** Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida “Yoshlar oyligi” doirasida “Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik!” shiori ostida “Kitobxonlik” tanlovida universitetimiz “Yosh kitobxon” klubi a'zolaridan tarkib topgan jamoa ham faol ishtirok etdi.

Universitet jamoasi kuchli 5 talikka kirdi. Arxitektura fakulteti 4-bosqich talabasi Jaloliddin Berdishukurov tanlovning **“Eng faol kitobxon”** nominatsiyasi bo'yicha taqdirlandi.

**2024-yil 23-iyun kuni** Yoshlar oyligi doirasida Samarqand davlat tibbiyot universitetida Samarqand viloyatidagi oliy ta'lim muassasalari o'rtasida zakovat o'yini bo'lib o'tdi.

1-o'rin – SamDAQU;

2-o'rin – SamDTU;

3-o'rin – SamDChTI.